



KIMYO FANIDA VARIATIV SINFLARDA YANGI BAHOLASH TIZIMI

Mirzayeva Hilola Roxotaliyevna
Namangan viloyati Pop tumani
Kimyo fani o'qituvchisi 10-IDUM

Annotatsiya : Kimyo fani o'quvchilar uchun eng muhim fanlardan biri bo'lganligi, qiziquvchilar sonining ko'pligi sababli maktablarda kimyo faniga ixtisoslashtirilgan sinflar tashkil qilinmoqda. Bunda, albatta, o'quvchilar qiziqishlari inobatga olinmoqda. Keyingi yillardan boshqa fanlardan ham variativ sinflar tizimi joriy etilishi kutilmoqda. Ularning baholash tizimi ham ma'lum bir kategoriyalarga asoslanmoqda.

Abstract: Chemistry is one of the most important subjects for students, due to the large number of interested people, specialized classes for chemistry are being organized in schools. In this, of course, the interests of students are taken into account. It is expected that the system of variable classes will be introduced in other subjects from the following years. Their rating system is also based on certain categories.

Аннотация: Химия является одним из важнейших предметов для учащихся, в связи с большим количеством интересующихся в школах организуются специализированные классы по химии. При этом, конечно, учитываются интересы студентов. Ожидается, что в последующие годы система вариативных классов будет введена и по другим предметам. Их рейтинговая система также основана на определенных категориях.

Kirish so'zlar: Kimyo fani, Summativ baholash tizimi , Formativ baholash tizimi, variativ, kategoriya, mezon.

Key words: Chemistry, Summative assessment system, Formative assessment system, variable, category, criterion.

Ключевые слова: химия, суммативная система оценивания, формативная система оценивания, переменная, категория, критерий.

Kimyo fani har bir o'quvchi uchun qiziq bo'lgan va o'rganishlari zarur bo'lgan dolzarb fanlardan biri. Kimyo darslari tajribalar orqali amaliy ravishda o'rganiladigan fanlardan biri. Kimyo fanini yanada kuchli o'qitish uchun turli xil



shar-sharoitlar yaratib berilmoqda. Buning uchun maktablarda variativ ya'ni ma'lum bir fanlarga asoslangan sinflar tashkil qilinmoqda.

Sentyabrdan boshlab respublikadagi 124 ta maktabda tanlov fanlari amaliyoti tajriba-sinov tarzida joriy etiladi. Bu yildan 10-11-sinf o'quvchilari 11 ta majburiy fandan tashqari, 2 ta o'zlari istagan yo'nalishda kerakli fanlarni o'qish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bunda tanlov fanlari 4 ta yo'nalishga bo'lingan.

“Tanlov fanlar tajriba-sinov tarzda yo'lga qo'yilayotgani uchun bu yil ularni 4 ta yo'nalishda taqdim etyapmiz. Ular: kimyo-biologiya, fizika-matematika, ona tili, adabiyot-chet tili, matematika-chet tili yo'nalishlarida bo'lyapti. Bunda yuqori sinf o'quvchilarimiz kelajakda tanlagan kasbi uchun kerak bo'ladigan fanlar doirasida chuqurroq bilim olishlari ko'zda tutilmoqda. Mana shu jarayonni tashkil etish uchun avvalo o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlari inobatga olinishi lozim. Shu maqsadda so'rovnomalar o'tkazildi, uning natijalariga ko'ra, tanlov yo'nalishlari tanlab olindi va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining dasturlari moslashtirildi. Ya'ni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining yuqori sinflari uchun yaratilgan dasturlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish ko'zda tutilmoqda”, – dedi Norboyeva.

1. Yuqorida ta'kidlangandek, maktablarda tajriba-sinov sinflari tashkil etilmoqda. Tajriba-sinov sinflari 4ta yo'nalish bo'yicha tashkil qilinmoqda. Bu yo'nalishlar: Kimyo-biologiya, fizika-matematika, ona tili - adabiyot-chet tili, matematika - chet tili. Hozircha kimyo - biologiya, fizika - matematika bo'yicha tashkil qilingan.

“Bugungi kunda o'quvchilarimiz ta'lim muassasalarida 5 balli sistemada baholab kelinmoqda. Har olgan kunlik bahosi ko'proq choraklik bahosini chiqarishda asosiy, muhim rolni egallagan. Va bu unchalik ham xolis baholashga kirmaydi, chunki o'qituvchi bolalarni 5 balli tizimda nisbiy baholab keladi. Yangi baholash tizimi mezonlarga asoslangan bo'lib, bunda o'quvchining aniq ham baholanadi.

Formativ baholash asosan o'quvchini yo'naltirish, rag'batlantirish xususiyatiga ega. Bu o'quvchiga ko'proq rag'bat, motivatsiya berishga xizmat qiladi. Summativ baholash esa ma'lum bir bob yakunida o'quvchi egallashi kerak bo'lgan standart, bilim va ko'nikmalar baholanadi”, – deydi mas'ul.

Norboyevaning qayd etishicha, summativ va formativ baholash tizimi ta'limi rivojlangan deyarli barcha mamlakatlarga joriy etib bo'lingan, bu tizim kelgusida maktab ta'limida inson omili, nisbiy baho berishga barham berish, o'quvchilarni haqqoniy baholashga xizmat qiladi.



2 .Shu yil may oyida esa 10-11-sinflarning tanlov fani tajribasi yo‘lga qo‘yilishi haqida xabar qilingandi. Bunda o‘quvchilarga 11 ta emas, 8 ta majburiy, 2 ta tanlov fankimyo-biologiya, matematika fizika, tarix-huquq, ona tili va adabiyot-chet tili) bo‘lishi aytilgandi. Maktablar summativ va formativ baholash tizimiga o‘tishi haqida esa shu yil iyun oyida Maktab vazirligi tomonidan “Mezonlarga asoslangan baholash tizimi” mavzusida o‘tgan seminar-treningda ma’lumot berilgandi.

3 Variativ sinflarda baholash tizimi ham yangicha usulda bo'ladi. Maktablarda yangi o‘quv yilida variativ o‘quv rejalarini sinovdan o‘tkazish davom ettiriladi, yangi yo‘nalishlar joriy etiladi. Umumiy o‘rta ta'lim maktablarida 2020-2021 o‘quv yilida ham variativ o‘quv rejalarini tajriba-sinovdan o‘tkazish ishlari davom ettiriladi. Shu bilan birga, tanlov yo‘nalishlari soni oshiriladi.Xalq ta'limi vazirligi xabariga ko‘ra, 2019-2020 o‘quv yilining uchinchi choragidan boshlab, tajriba sifatida 10-11-sinflarda fanlar ixtiyoriy tanlov asosida o‘qitila boshlandi.Bildirilishicha, variativ o‘quv rejalarini joriy qilishdan maqsad o‘quvchilarning o‘zi qiziqqan fanlarni chuqur o‘rganishiga sharoit yaratish, maktab bitiruvchilarining oliy o‘quv yurtiga kirish imtihoniga tayyorgarlik ko‘rishini ta'minlash va yuqori sinflarda o‘quv jarayonini kasblarga yo‘naltirilgan holda tashkil etishdan iborat.Variativ o‘quv rejalarining joriy qilinishi ixtiyoriy bo‘lib, maktabda tanlov sinfini tashkil etishda yuqori malakali, tajribali o‘qituvchilarning mavjudligi inobatga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.<https://kun.uz/92415104?q=%2Fuz%2F92415104>
- 2.<https://kun.uz/92415104?q=%2Fuz%2F92415104>
- 3.<https://kun.uz/92415104?q=%2Fuz%2F92415104>
- 4.etiladi<https://m.kun.uz/news/2020/06/22/maktablarda-yangi-oquv-yilida-variativ-oquv-rejalarini-sinovdan-otkazish-davom-ettiriladi-yangi-yonalishlar-joriy->